TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN DAVLATNING IQTISODIY-IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI MOLIYAVIY TA’MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Boltaeva Nodira Urchinovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 22.09.2025
Revised: 23.09.2025
Accepted: 24.09.2025

Kalit so‘zlar: davlat dasturi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, davlat subsidiyasi, moliyalashtirish, hududiy dastur, kreditlash.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorot banklari tomonidan davlat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini moliyaviy ta’minlash masalalari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

Keywords: state program, economic and social development, state subsidy, financing, regional program, lending.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of commercial banks' financial support for state economic and social development programs, and based on these, conclusions and scientific and practical proposals are formulated

Tijorat banklari tomonidan davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturlari moliyalashtirish bo‘yicha iqtisodiy siyosat moddiy ishlab chiqarish, bandlikni ta’minlash, xizmatlar tarmog‘ini taraqqiy ettirish, turizmni rivojlantirish kabi muhim iqtisodiy sohalarni qamrab oladi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi mamlakatning turli mintaqalari o‘rtasidagi keskin ijtimoiy va iqtisodiy nomutanosibliklarni yumshatishdir. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi kerak bo‘lgan “muhtoj” hududlarni ajratish, ortda qolayotgan zonalarni “jonlantirish”, “rag‘batlantiruvchi” siyosatni amalga oshirish, “kompensatsiya” siyosati kabi usullardan foydalaniladi. Mamlakatning ortda qolgan va muhtoj hududlarni rag‘batlantirish bo‘yicha siyosiy choralari qatorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yordam, imtiyozli shartlar va soliq imtiyozlari bo‘yicha ssudalar, davlat tomonidan sanoat ishlab chiqarishi va ijtimoiy infratuzilmani yaratish, davlat buyurtmalarini tashkil etish, aholining zarur migratsiya oqimlarini to‘g‘ri yo‘naltirish kabilarni keltirish mumkin. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat, shuningdek, o‘z ichiga soliq siyosati, byudjet siyosati, narx siyosati, investitsiya siyosati, ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish siyosati, ijtimoiy siyosat, institusional siyosat kabilarni qamrab

oladi.

Davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturlari moliyalashtirish bo‘yicha iqtisodiy siyosatning mohiyati va uning zaruriyatiga oid ilk nazariy yondashuvlar iqtisodiyot fani bo‘yicha nemis geografiya maktabining vakili Yoxann fon Tyunen ilmiy ishlarida ishlab chiqarishni tashkil etishda masofa va hududning rolini ochib berishga qaratilgan iqtisodiy modelda taklif qilingan [1]. Muallif 1826 yildagi “Alohidalashgan davlatning qishloq xo‘jaligiga va milliy iqtisodga munosabatlari” kitobida lokalizatsiya (joylashtirish) nazariyasining asoslarini taklif etgan. YO.Tyunen izolyatsiya qilingan davlat misolida yerdan foydalanish tartibi va intensivligini turli xil ekinlar yetishtirishning markaziy shahar atrofida to‘planishi, uning davlatning eng chekkasigacha cho‘zilgan bir qator konsentratsiyalashgan halqalar shaklida davom etishini asoslashga harakat qildi. Ushbu davr uchun ideallashgan makonda yopiq iqtisodiyot g‘oyasini qo‘llash butunlay yangi yondashuv edi. Bu iqtisodiy faoliyatning joylashishi nazariyasining asosini tashkil etdi. O‘z kitobida muallif “umumiy jamoaviy xarajatlar” tuzilishini berib, unga quyidagilarni kiritadi: ma’muriy, binolarni saqlash, yong‘in va do‘ldan sug‘urta qilish, ruhoniy va maktab o‘qituvchisi uchun ajratmalar, ishlab chiqarish kapitaliga (tovar-moddiy zaxiralarga) foizlar, mulkda kam ta’minlanganlarga yordam berish, tungi qorovulni saqlash, ko‘priklarni, yo‘llarni, suv oqimlarini va chegara ariqlarini saqlash xarajatlari hamda umumiy iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘lgan aralash xarajatlar.

Alfred Veber 1909 yildagi “Sanoat joylashuvi sof nazariyasi” kitobida mehnat omillari, xomashyo va yoqilg‘i resurslari tannarxi, shuningdek ularni bir-biriga o‘tkazish uchun transport xarajatlari sanoat ishlab chiqarishining taqsimlanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida ko‘rib chiqilgan (Alfred Weber (1909) Über den Standort der Industrie (Theory of the Location of Industries).). U yagona sanoat korxonasining joylashishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilish asosida sanoat “shtandarti” (joylashish omili) nazariyasini ishlab chiqdi. Shuningdek, u barcha korxonalarning jamlama joylashuvining “umumiy nazariyasi”ni yaratish taklifini ilgari surdi, ammo bu g‘oyani amalga oshirmadi. A.Veberning so‘zlariga ko‘ra, korxonaning joylashishini tanlashga uchta omilning o‘zaro ta’siri ko‘proq ta’sir qiladi: transport xarajatlari, mehnat xarajatlari va aglomeratsiY.

Valter Kristaller 1933 yildagi "Janubiy Germaniyaning markaziy joylari" asarida bozor maydonida aholi punktlarining joylashuvi to‘g‘risidagi nazariyani (“Kristal panjarasi” nazariyasi) taqdim etdi [2]. Markaziy joylar - o‘zlariga va o‘z tumanlari aholisiga tovarlar va xizmatlar bilan yordam qiladigan iqtisodiy markazlar sifatida hisoblanishi e’tirof etildi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy markazlar tabiatdagi “asalari uyalari” kabi olti burchak sifatida shakllana boshladilar. Ushbu nazariyaga ko‘ra birlamchi ehtiyoj mahsulotlarini o‘z ichiga olgan ma’lum bir tovarlar va xizmatlar barcha hududlarda, kiyim- kechak, uy-ro‘zg‘or xizmatlari kabi o‘rtacha qiymatdagi ikkinchi guruh tovarlari esa o‘rtahol aholi punktlarida, hashamatli

buyumlar, teatr xizmatlari kabi uchinchi guruh qimmatbaho tovarlar yirik shaharlarda taklif etilishi kerakligi asoslanadi. Iqtisodiy markaz o‘z darajasidagi zona (olti burchakli) uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarga qo‘shimcha ravishda, boshqa pastroq darajadagi markazlarga xos bo‘lgan tovarlarni ham ishlab chiqaradi. Har qanday markaz uchun doim pastroq darajani egallagan o‘ziga qaram atrofdagi aholi joylari mavjud bo‘ladi. Ushbu nazariya hududlarda aholining qayta joylashtirishning maqsadga muvofiqlik g‘oyasini ilgari suradi.

Avgust Lyosh bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyasini taklif qildi. Bunda u asosiy e’tiborni xomashyo va transport xarajatlarni kamaytirishga emas, balki foyda olishni maksimallashtirishga qaratdi [3]. Muallif, shuningdek, “iqtisodiy landshaft” konsepsiyasini yaratdi. Bunda hal qiluvchi omil turli darajadagi korxonalarning shaharlarda tugunlari bo‘lgan iqtisodiy rayonlar tarmog‘iga kiruvchi savdo zonalari bo‘lib hisoblanadi. A.Lyosh oldindan rejalashtirilgan retsept bo‘yicha emas, balki bozor muvozanati modeli asosida ishni tashkil etishni taklif qildi. Bu esa aslida jamiyatning hududiy o‘zini o‘zi tashkil etish va uning iqtisodiy hayotini shakllantirish namunasi edi. Model ikkita kuchni muvozanatlashni o‘z ichiga oladi: butun davlat manfaatlari (iqtisodiy jihatdan mustaqil obektlarning maksimal soni) va tadbirkorning manfaatlari (bunda eng yuqori foydaga erishish ustuvorlik qiladi). Muvozanat nuqtasi soliq siyosati, fan-texnika taraqqiyoti, davlat tomonidan tartibga solish va chegaralar kabi ko‘plab omillarni o‘rganish asosida aniqlangan joylashuv nuqtasi hisoblanadi. A.Lyosh nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ajratib ko‘rsatish mumkin:

- alohida ajratilgan obektning o‘zini emas, balki murakkab muammolarni kompleks ko‘rib chiqish nazarda tutiladi;
- yondashuv hudud iqtisodiyotining butun tuzilishini qamrab oladi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari);
- iqtisodiyotning tarkibini tahlil qilishda sotish xarajatlari, bozor bilan aloqa, bozor zonalarini shakllantirish ko‘rib chiqilgan.

Uilyam Alonso shaharda va uning atrofidagi yerlar bozori modelini ishlab chiqdi. Bunda shaharda turli maqsadlarda foydalanish uchun ofislar, do‘konlar, uy-joy, sanoat o‘rtasidagi raqobat mavjudligini hisobga olinishi asoslab berildi [4]. Shaharning o‘ziga xos xususiyati shundaki, odamlar shahar markaziga yaqinroq joylashgan joy uchun qo‘shimcha pul to‘lashga tayyor. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat korxonasining joylashishini tanlash asosan tashqi omillar bilan belgilanadi hududning iqtisodiy o‘zlashtirilganligi bilan asoslanadi. Korxonani iqtisodiy markazga yaqin joylashtirish natijasida tejaladigan mablag‘lar hajmi korxonani xomashyo manbalari mavjud, ortiqcha, ammo malakasiz ishchi kuchiga ega hududlarda joylashtirish natijasida olingan tejalgan mablag‘lar bilan bir-birini qoplashi mumkin. Bunday sharoitda mavjud yirik shaharlarda va ularning atrofida sanoatning konsentratsiyasi o‘zini oqlaydi.

Uolter Ayzard tomonidan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini hududlarda

prognozlashning yaxlit modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy elementlari iste’molchilar talabi va uning geografik taqsimoti, shuningdek ma’lum iqtisodiy resurslarning mavjudligi hisoblanadi [5]. Muallif o‘ziga xos texnik va iqtisodiy yondashuvni ilgari surib, uning doirasida mahsulot tannarxining xomashyo va transportga bog‘liq tarkibiy qismlariga hamda tannarxga mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamining ta’siriga alohida ahamiyat bergan. U.Ayzard miqdoriy xususiyatlari orqali aholi punktlari va transport inshootlarining iyerarxiyasini aniqlashga katta e’tibor qaratdi. Shuningdek, ishlab chiqarishning xomashyo yoki, aksincha, sotish bozorlariga yaqinroqqa intilish kabi omillar ta’siri sanoat korxonalarini joylashtirishda tabiiy jarayon ekani asoslangan. U.Ayzard migratsiyani mehnat bozorlaridagi talab va taklif o‘rtasidagi hududiy tafovutlar orqali tushuntirib bergan.

Akademik A.G.Granberg fikriga ko‘ra, keng ma’noda mintaqaviy iqtisodiyotning mavzusi murakkab va ko‘p tomonlama xarakterga ega. A.G.Granberg mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- alohida mintaqaning iqtisodiyoti;
- mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- mintaqaviy tizimlar (milliy iqtisodiyot - o‘zaro ta’sir qiluvchi mintaqalar tizimi sifatida);
- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish;
- iqtisodiy hayotning mintaqaviy jihatlari.

A.G.Granberg fikriga ko‘ra mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy fandagi o‘rni bir tomondan, mintaqa iqtisodiyoti mintaqaviy fanlar tizimiga kiritilganligi, ikkinchi tomondan, mintaqa iqtisodiyoti iqtisodiy fanlar tizimiga tegishli ekani bilan izohlanadi. Ma’lumki, mintaqa iqtisodiyotining fan sifatida asosiy yo‘nalishlari ikkita asosiy tadqiqot mavzularini o‘z ichiga oladi [6]: turli hududlar iqtisodiyotining taqqoslama tahlili, ularda hududlar bir hil iqtisodiy birliklar sifatida qaraladi, ya’ni umumiy holatda ko‘rib chiqiladi; mintaqaviy iqtisodiyotning yakka tartibdagi xo‘jalik yurituvchi subektlarining joylashishi va o‘zaro munosabatlari tahlili, bunda bir xillik prinsipi amal qilmaydi. Birinchi yondashuv makroiqtisodiy qarashni talab etsa, ikkinchisi - mintaqaviy iqtisodiyotga nisbatan mikroiqtisodiy yondashuvni nazarda tutadi. Mintaqaning makroiqtisodiy jihatlari ma’lum darajada mintaqaviy mikroiqtisodiyotni ham aks ettirgan holda dastlab fazo iqtisodiy nazariyasi deb nomlangan iqtisodiy tahlilning amaliy sohalari sifatida shakllandi. Mintaqaviy makroiqtisodiyot - mintaqaviy iqtisodiy siyosat, alohida hududlarda resurslarni va iqtisodiy faoliyatni taqsimlash, turli mintaqalarning o‘zaro ta’siri kabilarni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv aniq chegaralar mavjud bo‘lgan iqtisodiyotga nisbatan qo‘llaniladigan makroiqtisodiy tahlilga juda o‘xshaydi.

Shunday qilib, mintaqaviy iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, ishlab chiqarish omillarining bir-biridan har xil masofada joylashgan mintaqalar orasidagi harakati muammolari ekonometrik modellar to‘plamidan foydalanadigan mintaqaviy makroiqtisodiyotning tahlil mavzusi hisoblanadi va hududlarda ro‘y berayotgan

jarayonlarning mohiyatini tushunishga va tegishli mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishga yordam beradi [7].

Makroiqtisodiy vositalar mintaqaviy iqtisodiyot darajasida ham qo‘llaniladi. Masalan, “mintaqaviy multiplikator” deb nomlangan makroiqtisodiy xarajatlar multiplikatorining versiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, g‘arb davlatlari iqtisodiyotlarining mintaqaviy rivojlanishini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Mintaqaviy multiplikator avtonom xarajatlar qiymatining oshishi (pasayishi) bilan mintaqadagi daromadlar va bandlikning o‘zgarishini baholash uchun ishlatiladi. Mintaqaviy multiplikatorni harakatga keltiruvchi mexanizmi quyidagicha: talabning dastlabki o‘sishi mintaqaviy daromadlarning oshishiga olib keladi, bu esa mintaqa iqtisodiyotida xarajatlarning bir necha barobar ko‘payishiga olib keladi. Mintaqada xarajatlarning ko‘payishi import shaklida tabiiy demferlarning mavjudligi (ya’ni, mintaqaga mamlakatning boshqa hududlaridan keladigan tovarlar), boshqa mintaqalardagi soliq tizimlaridan farq qiladigan hududiy soliqqa tortish, ushbu mintaqaning iqtisodiy agentlari tomonidan boshqa hududlarga kiritilgan investitsiyalar, mintaqadagi banklarga va milliy darajada banklarga yo‘naltirilgan omonatlar tufayli yuzaga keladi. Mintaqaviy iqtisodiyotning shartli (ma’muriy) chegarasi mavjudligi sababli, uning hajmi bo‘yicha mintaqaviy multiplikator makroiqtisodiy multiplikatordan sezilarli darajada past bo‘ladi.

Tarixiy rivojlanish sharoitlari asosida “standart” yoki “klassik” mintaqaviy iqtisodiy siyosat ikki tarkibiy qismga ajralgan: 1) rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash; 2) mintaqalararo nomutanosiblikni bartaraf etish. Biroq, g‘arb nazariyalaridagi mintaqaviy siyosatning standart usullaridan barcha mamlakatlarda birdek foydanib bo‘lmaydi. Bunda davlatlarning o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlari, “klassik” mintaqaviy siyosat, muayyan mintaqa hokimiyati tomonidan ustunlikka asoslangan maxsus ichki iqtisodiy siyosat, uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar, mintaqalararo aloqalar va o‘zaro ta’sir omillari e’tiborga olinishi zarur. Mintaqalar geografiyasi muhim omil bo‘lgan yirik mamlakatlarda mintaqalar siyosatidagi hamkorlik va ixtisoslashuv davlatning ko‘plab mintaqaviy muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy nazariyasi quyidagi fundamental muammolarni o‘rtaga tashlamoqda:

- “global hamjamiyat”, inqirozli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy rivojlanish va hududlarni tushunishning konseptual modellari mohiyatidagi o‘zgarishlar;
- ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilganlikdan global yo‘naltirilgan mintaqaviy siyosatga o‘tishning asosliligi;
- mavjud mintaqalararo nomutanosibliklar sharoitida hududlararo tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan nazariyaning maqsadga muvofiqligi;
- mintaqaviy integratsiya va hamkorlikning yangi paradigmalarini izlash.

Mintaqaviy rivojlanish muammolarini mintaqaviy siyosat iqtisodiy nazariyasi

pozitsiyalarining quyidagi yondashuvlar bilan tavsiflash mumkin:

1. Rivojlanmagan mintaqalarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mintaqalararo nomutanosibliklarni davlat tomonidan tartibga solishni nazarda tutuvchi mintaqaviy rivojlanishga neokeynscha yondashuv. Bunday siyosatning vositalari sifatida kredit mexanizmlari, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar, davlat subsidiyalari va boshqalar qo‘llaniladi.

2. Mintaqaviy siyosatni shakllantirishga neoklassik yondashuv, unda mintaqalar o‘zaro erkin munosabatlarga kirishganda savdo-sotiq va resurslar almashinuvi yordamida mavjud tafovutlarni tartibga solinmagan bozor orqali bartaraf etishlari mumkinligi ta’kidlanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu yondashuv hech qachon o‘zining sof shaklida qo‘llanilmagan va mavjud huquqiy tizimlar, cheklovlar, mintaqaviy xususiyatlar va boshqa omillar tufayli qo‘llanila olinmaydi.

3. Regionalizm nazariyasi, bunda asosiy e’tibor mintaqalararo siyosiy va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi, undan kelib chiqadigan mojarolar masalalariga qaratiladi. Bunda asosiy urg‘u siyosiy xokimiyat bilan hamkorlikda mintaqalar o‘rtasida resurslar taqsimotini tahlil qilishga qaratiladi.


4. Nomutanosib o‘sish nazariyasi, unga ko‘ra bozor munosabatlari mintaqaviy tafovutlarni kuchayishiga olib keladi, ba’zi hududlarning boyligini yanada oshirishga xizmat qilsa, boshqalarning qashshoqligini kuchaytiradi. Hayotiy sikl nazariyasi nuqtai nazaridan mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish bo‘yicha yondashuv ham mavjud bo‘lib, uning doirasida mintaqada yaratilgan yangi mahsulotlarning hayotiy sikli ko‘rib chiqiladi va bu mintaqaning rivojlanishining siklik qonunlari bilan birlashtiriladi. Hayotiy sikllar nazariyasi asosida ishlab chiqilgan mintaqaviy siyosat chora-tadbirlarining natijasi mintaqada yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratilishini rag‘batlantirish va eskirgan mahsulotlarni tartibli ravishda rad etishdir, bu shubhasiz mintaqaning iqtisodiy tuzilmasini tiklashga ta’sir qiladi.

5. Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsion-dasturiy yondashish mumkin, bu asosan birinchi yondashuvga mos keladi. Buning asosiy g‘oyasi shuki, viloyat ma’muriyati o‘zining tahliliy xizmatlaridan foydalanib, chuqur inqiroz sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotning ikkita matritsasini ishlab chiqishi va birlashtirishi mumkin: 1) iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlariga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan investitsiya resurslarining matritsasi (ushbu matritsa investitsiya resurslari hajmi va harakatining tegishli kanallarini ko‘rsatadi); 2) mahsulot, aniqrog‘i, mintaqaviy iqtisodiyotning yoki uning alohida tarmoqlarining raqobatbardoshlik parametrlarining matritsasi. Ushbu matritsani shakllantirish ancha qiyin vazifadir, chunki u hududiy bozorlarni tahlil qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini inventarizatsiya qilish, mintaqadagi sanoat korxonalari uchun mavjud bo‘lgan yuqori texnologiyalarni aniqlash va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar asosida mintaqaviy iqtisodiy

siyosatni amaliyotda tashkil etishning maqsadi, asosiy vazifalari, yo‘nalishlari, ijrochilari va faoliyatni amalga oshirish instrumentlari bo‘yicha yaxlit yondashuvni shakllantiramiz (1-rasm).

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi hududlar aholisi iqtisodiy farovonligini oshirish bilan birga ularning o‘zaro mutanosibligini ta’minlashdir. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat 2 ta darajada, ya’ni respublika darajasida davlatning hududlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha mintaqaviy iqtisodiy siyosati hamda alohida hududlarning respublikadan alohidaroq o‘z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan siyosati shaklida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Davlat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish maqsadlarining konseptual sxemasi

Respublika va alohida hudud darajasidagi mintaqaviy iqtisodiy siyosat avvalo ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mehnat resurslarini samarali taqsimlash, hududlararo samarali iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish kabi vazifalarni hal etishga yo‘naltirilishi lozim.

Oqilona mintaqaviy iqtisodiy siyosatni yuritish uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasini aniqlash kerak bo‘ladi.

Buning uchun:

- mintaqaviy iqtisodiyotning agentlari faoliyatining raqobatbardosh sohalarini ajratib ko‘rsatish va ushbu faoliyat turlarining imtiyozli rivojlanishini (rag‘batlantirilishini) ta’minlash, ya’ni mintaqaviy tizimning ixtisoslashuviga turtki berish;
- bir nechta faoliyat turlarini, shu jumladan raqobatbardosh bo‘lmagan, ammo turli xil siyosiy rivojlanish maqsadlari (diversifikatsiyalangan ixtisoslashuv) asosida ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan turlarni aniqlash, ushbu rivojlanmagan sohalar mintaqaviy tizimning rivojlanish istiqbolini (istiqbolli ixtisoslashuv) tashkil qilishi kerak;
- ustuvorliklarni aniqlamay hududiy tizimga, o‘z-o‘zini ta’minlashni yaxshilashga imkon beradigan faoliyat turlarini rivojlantirish, strategiyani tashqi, ya’ni eksport faoliyatiga yoki ichki mintaqaviy bozorga yo‘naltirish;
- ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash yoki o‘zini o‘zi ta’minlash modellari, mintaqaning “oqilona” avtonomligi yoki eksport- import ochiqligi modellarini belgilashda rivojlanishning asosiy ijtimoiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun mintaqaviy siyosat vositalaridan foydalanish.

Hududlar rivojlanishini rejalashtirishdan foydalanish mintaqaviy menejmentning muhim vazifasi bo‘lib, mintaqaviy rivojlanish nazariyasi doirasida tahlil qilishni talab qiladigan o‘zgaruvchilarning quyidagi to‘plamlarini ajratishga olib keladi:

- mahsulotlar (texnologiyalar) va bozorlar (shartnomalar, rasmiy va norasmiy qoidalar);
- loyihalar (texnik-iqtisodiy jarayonlar, tartib-qoidalar) va ularga investitsiyalar (tanlov tartib-qoidalari);
- intellektual resurslar (bilim, tashkiliy genotip) va ularning joylashuvi (meros);
- korporativ qarorlarni rejalashtirish va qabul qilish usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini topish.

Muvofiqlashtirilgan mintaqaviy rivojlanish konsepsiyasining markaziy g‘oyasi sifatida mintaqani uch komponentli dinamik model tarzida ko‘rib chiqishni keltirish mumkin [8]: kvazi-davlat, kvazi-kompaniya va eksport-import oqimi sifatida. Ko‘rsatilgan uchta modeldan mintaqaning rivojlanishi uchta o‘zaro bog‘liqlik tizimiga olib keladi: “texnologiyalar - mahsulotlar – bozorlar”, “ijtimoiy standartlar – bandlik” va “loyihalar - dasturlar - investitsiyalar”. Ularning har biri mintaqaviy mahsulotning o‘rtacha foydalanish qiymatini yaratish uchun talab qilinadigan investitsiyalar, ushbu foydalanilgan qiymatdan olingan real daromad miqdorini (mintaqada jon boshiga) taqqoslash muammosiga bog‘lanishi mumkin.

Ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, milliy va millatlararo munosabatlar mintaqaviy

siyosatning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Ularning barchasi, albatta, o‘zaro bog‘liq, ammo bu yo‘nalishlar markazida iqtisodiy farovonlik turadi. Hududda iqtisodiy farovonlikka erishish uchun esa shubhasiz, mulkning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, yer munosabatlari va ushbu sohada bozor mexanizmining shakllanishi, moliyaviy munosabatlar, tabiatni oqilona boshqarish, alohida hududlarni tanlab maqsadli qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar amalga oshirilishi zarur. Iqtisodiy yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

- mamlakat yagona iqtisodiy makonida hududiy iqtisodiyotlarning samarali ixtisoslashuvini ta’minlash;
- xo‘jalik yurituvchi subektlar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi vertikal va gorizontal o‘zaro ta’sir mexanizmlarini takomillashtirish;
- umumdavlat dasturining mintaqaviy bloklari sifatida hududlarda maxsus islohotlar dasturlarini ishlab chiqish;
- yangi hududlarning iqtisodiy o‘zlashtirilishida, shu jumladan xorijiy va mahalliy xususiy kapitalni jalb qilishda ishtirok etish;
- mintaqalararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarning uzilishini yengib o‘tish va mustahkamlash;
- eski sanoat hududlari va uzoq qishloqlarda progressiv tarkibiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash;
- ekstremal ekologik sharoitga ega mintaqalarda va depressiya mintaqalarida inqirozni bartaraf etishga qaratilgan say-harakatlarni amalga oshirish;
- moliya va pul tizimini hududiy muvozanatini ta’minlash va barqarorlashtirish va b.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda hududlar rivojlanish darajasiga, muammoli hududlar mavjudligi, strategik mintaqalarning aniqlanganligini hisobga olib, respublika va alohida hududlar siyosatlarini o‘zaro oqilona birlashtirgan holda barcha chora-tadbirlarni avvalo aholining iqtisodiy farovonligini oshirish, hududlar o‘rtasida tafovutlarni kamaytirish bilan ularning kompleks va mutanosib rivojlanishini ta’minlashga qaratilishi zarurdir. Bunda albatta hududlarning nisbiy ustunliklari, o‘ziga xos imkoniyatlari, o‘sish nuqtalari va rivojlanish zahiralaridan samarali foydalanish nazarda tutilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Johann Heinrich von Thünen (1826). Der isolirte Staat in Beziehung auf Landwirtschaft und Nationalökonomie. Wirtschaft & Finan.
2. Die zentralen Orte in Süddeutschland. Eine ökonomisch-geographische Untersuchung über die Gesetzmäßigkeit der Verbreitung und Entwicklung der Siedlungen mit städtischer Funktion. Wissenschaftliche Buchgesellschaft, Darmstadt 1980, ISBN 3-534-04466-5 (Repr. d. Ausg. Jena 1933.

3. Granberg A. G. Osnovi regionalnoy ekonomiki. — M.: GU VSHE, 2000. - S. 63-66. — 495 s. — ISBN 5- 7598-0074-4.

4. Limonov L.E. Regionalnaya ekonomika i prostranstvennoye razvitiye // M.: Izdatelstvo Yurayt. - 2015. - T. 1. - S. 112-128.

5. Walter Isard, Spatial Dynamics and Optimal Space-Time Development (1979).

6. Hoover E. M. An Introduction to Regional Economics, Knopf, New York, 1971, 395 p.

7. Armstrong H., Taylor J. Regional Economic Policy. 3 ed. (1-ed. Philip Allan, Oxford, 1978) — Wiley-Blackwell, 2000, 437 p.

8. Izard U. Metodi regionalnogo analiza: vvedeniye v nauku o regionax. M.: Progress, 1966.